O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son[2]li Farmonida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va ularni tejash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Strategiyada resurslarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish orqali xizmatlar hajmini 2026-yilgacha 1,8 baravar oshirish, sohada qo'shimcha 500 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish hamda xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 50 foizdan yuqori darajaga yetkazish maqsad qilingan.

Yuqoridagi farmon va qarorlar iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab beradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 270 trillion so'mni tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 1,4 baravarga oshgan. Shu davrda xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar hisobiga mahsulot tannarxi o'rtacha 12 foizga kamaygan, energiya sarfi esa 8 foizga qisqargan.

Mazkur vazifalarni bajarishda xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish, resurs boshqaruvi tizimlarini modernizatsiya qilish hamda korxona ichki imkoniyatlarini to'liq ishga solish dolzarb hisoblanadi hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Servis iqtisodiyotining shakllanishi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatning shakllanishi, iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M. Keynes[3], M. Porter, Y.A. Shumpeter, K.X. Haksever, B.R. Render, R.S. Rassel, R.G. Merdik va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish xususiyatlari, servis faoliyatining innovatsion jihatlari xorijlik olimlar, jumladan, E.F. Avdokushin[4], T.D. Burmenko[5], V.A. Bespalov, V.A. Demidov, N.N. Lebedeva, O.S. Oleinik, A.P. Egorshin, S.A. Zaichenko va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan M.Q. Pardaev, M.E. Po'latov, M.M. Muxammedov, D.R. Zaynalov, Q.J. Mirzayev, I.S. Tuxliev, X.P. Abulkasimov, T.S. Rasulov, N.U. Arabov, D.X. Aslanova, B.Sh. Safarov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan[6].

1 http://stats.oecd.org/
2 https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3 Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.;
4 Авдокушин Е.Ф. и др. Новая экономика: монография / Под ред. Е.Ф.Авдокушина, В.С. Сизова. - М.: Магистр. - 2009. - 542 с.;
5 Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661;
6 Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy resurslarning barcha turlariga xos bo'lgan xususiyat, ularning nisbatan cheklanganligi va kamyobligi hisoblanadi. Resurslarning cheklanganligi iste'mol bilan birga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ham cheklab qo'yadi. Buning natijasida har bir korxona, mamlakat o'z imkoniyatlarini hisobga olib, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning har bir turini birdaniga emas, uning shu davr uchun eng kerakli bo'lganlarini tanlab kengaytirish va rivojlantirishga ustunlik beradi, resurslarni birinchi navbatda ularga jalb qiladi.

Har bir resurs undan xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanilganda muayyan samaraga ega bo'ladi. Resurs keltiradigan natija o'z chegaralariga ega. Har qanday resursdan oqilona foydalanilgan taqdirda ham ma'lum chegaradan ortiq mahsulot yaratib bo'lmaydi.

Xizmat ko'rsatish faoliyati turli xil ko'rinish va yo'nalishlarda xizmat ko'rsatish natijasida iste'molchilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu faoliyat pirovard natijalarga erishishda iste'molchilarning bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish jarayonida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omili bo'lganligi sababli sohada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning tavsifi va mazmuniga e'tibor qaratamiz.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligini umumiy mezonini belgilashda ham hozircha yagona yondashuv mavjud emas. Ba'zi iqtisodchilar fikricha, xizmat ko'rsatish yuksak darajada bo'lgan va barcha resurslardan oqilona foydalangan holda aholining talabini to'laroq qondirish xo'jalik faoliyati samaradorligining mezoni hisoblanadi. Ko'pgina iqtisodchilar xarid quvvatiga ega bo'lgan aholiga xalq iste'moli buyumlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligining umumiy mezoni hisoblanadi, deyishsa, boshqalar xizmat ko'rsatish jarayoni samaradorligi o'zaro bog'langan asosiy ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanishi kerak, ko'rsatkichlarning bu tizimi xizmat ko'rsatishda yaratilgan yalpi daromad miqdorini, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar miqdorini to'la aks ettiradi, deyishadi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalari xo'jalik faoliyatida samaradorlikni kompleks tahlil qilish faqat uning mezonini o'z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi zarur, chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o'lchov hamda baholash vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifalarni samaradorlik ko'rsatkichlari bajaradi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalangan holda aholining xizmatlarga bo'lgan talablarini to'liq va sifatli qondirish asosida yuqori natijadorlikka erishish xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligining bosh mezoni hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan samarali foydalanish davr talabi. Bu hech eskirmaydigan muammodir, chunki undan samarali foydalanish mulkning yoki ijtimoiy tizimning qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar hamisha dolzarbdir.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar xizmatlar sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan bog'liq. Bugun dunyo miqyosida insoniyat tomonidan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish va ularni o'zlashtirish natijasida xizmatlar sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Rivojlangan davlatlar kabi mamlakatimizda ham xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholining unga bo'lgan talabini to'liqroq qondirish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning xorijiy tajribalarini o'rganamiz. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va AQSH kabi rivojlangan davlatlarda XVIII asrda xizmatlar sohasi rivojlana boshlaganini va bunga asosiy sabab dunyo miqyosida sodir bo'lgan sanoat revolyutsiyasi ekanligini ko'rish mumkin.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan boshqa tarmoq va sohalarning ixtisoslashuvi bilan ham bog'liqdir. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar YAIMning 75 % ini va rivojlanayotgan mamlakatlar YAIMning 50 % ini xizmatlar sohasi tashkil etmoqda. Bu mamlakatlarning tajribasini o'zlashtirish maqsadida AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya davlatlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish tajribasini o'rganishga harakat qilamiz.

---

иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журнали. Самарканд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 332 б.; Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие. – Т.: ТашГИВ 2017. – С. 15-17.; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журнали//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- Киев. 1992 – С. 20.

AQSHning xizmatlar sohasini rivojlantirish tajribasi. Tarixiy jihatdan xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyat o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida har doim ham xizmat turlari, sifati va texnikasiga yuqori talablar qo'ygan. Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining alohida faoliyat turi sifatida taqsimlanishi XX asrning boshlarida sodir bo'lgan, o'sha davrda birinchi marta A. Fisher, keyinroq esa D. Bell nomoddiy ishlab chiqarish iqtisodiyotning uchinchi sektori to'g'risida fikr bildirgan.

U. Vitt va K. Grosslarning tadqiqotlariga ko'ra, 1970-yildan 2005-yilgacha Amerika Qo'shma Shtatlarida transport va sanoatda arzon energiya vositalarining paydo bo'lishi mehnat unumdorligining oshishiga va xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga sabab bo'lgan. AQSHda yaratilgan texnologik innovatsiyalar juda tez sur'atlar bilan turizm, bank-moliya, tibbiyot, ta'lim va boshqa xizmatlarga jalb etilishi sohaning yetakchi tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi, deyish mumkin.

Yaponiyada xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyasi. Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasi sanoatning rivojlanishini ta'minlovchi sektor sifatida shakllangan. Xizmat ko'rsatish sohasida chakana va ulgurji savdoning ulushi yuqori hisoblanadi. Yaponiyada 1980-yillardan boshlab reklama, ma'lumotlarni qayta ishlash, nashriyot, turizm, dam olish sohalari, ko'ngilochar va boshqa sohalar jadal rivojlana boshladi. Dastlab xizmat ko'rsatish sohalarining aksariyati kichik hajmda faoliyat yurituvchi va mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan, hukumat tomonidan kompyuter va elektron mahsulotlarning xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanishi yo'lga qo'yilib, texnologik jihatdan rivojlanib bordi. Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasida bandlar ulushi 75 % ni tashkil etadi. Yaponiyada savdo, moliyaviy va sug'urta xizmatlari hamda bank xizmatlarini ko'rsatish xizmatlar sohasida yuqori o'rin egallaydi. Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyotida axborot, turizm, aloqa xizmatlarining ham roli oshmoqda.

Yaponiyada savdo xizmatlari rivojlangan. Savdo sohasi qo'shilgan qiymat yaratilgan tovarlar savdosiga asoslanadi. Yaponiyada xomashyo import orqali kiritiladi, qayta ishlanadi va qo'shilgan qiymat yaratilgan sanoat tovarlari eksport qilinadi. Yaponiya imperiyasi davrida savdo yengil sanoatga ixtisoslashgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin neft va yoqilg'i mahsulotlari import qilinib, mashinasozlik, avtomobilsozlik, yarim o'tkazgichlar, yuqori texnologik uskunalar eksport qilina boshlandi. Bu davrga kelib, savdo og'ir va kimyo sanoati mahsulotlariga ixtisoslashdi. 1980-yildan boshlab Yaponiya savdo balansi ijobiy bo'la boshladi. 1990-yildan boshlab Yaponiya kompaniyalari qator ishlab chiqarish zavodlarini Osiyo mamlakatlariga ko'chira boshladi. Osiyo mamlakatlarida ishlab chiqarilgan tovarlarni esa import qilishga o'tdi.

Yaponiyada moliya xizmatlari rivojlangan. Mamlakat iqtisodiyoti moliya bozori infratuzilmasining rivojlanganligi tufayli o'z zaxiralari va mavjud resurslaridan samarali foydalana olgan. 2022-yilda xizmat ko'rsatish sohalariga ijtimoiy ta'minot (34,2 foiz), davlat qarziga xizmat ko'rsatish (23,6 foiz), mahalliy ajratmalar, soliq imtiyozlari va boshqalar (16,1 foiz), jamoat ishlari (6,1 foiz), ta'lim va fan (5,4 foiz) hamda milliy mudofaa (5,2 foiz) uchun mablag' ajratilgan.

Yaponiyada transport xizmatlari yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, mamlakatning yirik shaharlarini bog'lovchi "Sinkansen" tezyurar poyezdlari alohida e'tiborga sazovordir.

Yaponiyada turizm xizmatlari yaxshi rivojlangan. Har yili Yaponiyaga 30 mln atrofida xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi. Yaponiyaning eng muhim turistik resursi uning boy va betakror tarixiy-madaniy merosi hisoblanadi. Mamlakatda turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Yaponiyada turistlar uchun 1 600 ta muzey, 357 ta milliy va prefektura parklari, 290 ta hayvonot va botanika bog'lari, 76 ta akvarium hamda "Tokio Disneylendi" qatorida 227 ta ko'ngilochar majmua faoliyat yuritadi. Turizm xizmatlari hajmi yildan yilga oshmoqda. Yaponiyada xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi ushbu davlatdagi yirik korporatsiyalarning xorijga investitsiya kiritishi bilan ham bog'liq. Xizmat ko'rsatish sohalari orasida restoran, reklama, ko'chmas mulk, mehmonxona va dam olish biznesi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash sohalari rivojlangan.

Germaniyada xizmatlar sohasining rivojlanishi. Germaniya yuqori darajada shaharlashgan va sanoati rivojlangan davlatlardan biridir. Germaniyada xizmatlar sohasi, shu jumladan savdo va moliya, bandlikning eng katta qismini tashkil qiladi. XXI asrning boshlarida ishchilarning taxminan beshdan bir qismi ishlab chiqarishda, 2 % i qishloq xo'jaligi bilan bog'liq sohalarda, qolgan qismi esa xizmat sohalarida, ya'ni moliya, bank, maishiy xizmatlar, sug'urta va xizmat ko'rsatishning boshqa sohalarida faoliyat olib boradi. Germaniyada aholi yoshi ulg'ayib borgani sari iqtisodiy o'sish sur'ati pasayib bormoqda. 2050-yilga borib Germaniyada ishchi kuchi soni 28 % ga qisqarishi prognoz qilingan.

Germaniya davlatida XX asrning o'rtalarigacha ishlab chiqarishni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilgan bo'lsa, keyinchalik globalizatsiya va ixtisoslashuv jarayonlari tufayli xizmatlar sohasini rivojlantirishga e'tibor berila boshlandi. J. Gershuni va I. Maylsning tadqiqotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda, shu jumladan Germaniyada insonlar ko'proq vaqtini xizmatlarni sotib olishdan ko'ra o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni afzal bilishadi.

Germaniyada ish haqi xarajatlarining yuqoriligi sababli unumdorligi past bo'lgan xizmat turlarini rivojlantirish juda qimmatga tushadi. Shu sababli mamlakatda ko'p xizmatlar autsors shakliga o'tgan. Masalan, ko'pgina nemis korxonalarida dasturlash xizmatlari xorijiy korxonalar tomonidan ko'rsatiladi.

Bugungi kunda Germaniyada malakali kadrlarga bo'lgan yuqori talab xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish, chakana savdo va qurilish sohalarida sezilmoqda. 2021-yilda malakali ishchilar yetishmovchiligi rekord darajaga yetib, mamlakat bo'ylab bo'sh ish o'rinlari soni 1,8 mlnni tashkil qildi. GFR hukumati Germaniyada ish topishdagi to'siqlarni kamaytirish maqsadida mamlakatning immigratsiyaga oid qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish rejalarini ishlab chiqdi.

Buyuk Britaniyada xizmatlar sohasining rivojlanishi. Buyuk Britaniyada 2016-yilda YAIMning 75 % ini xizmatlar tashkil etgan va jami bandlarning 79 % i xizmatlar sohasiga to'g'ri kelgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bo'layotgan o'zgarishlar xizmatlar sohasining tarkibi va ishlash tartibini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda Zoom, Skype kabi dasturlar insonlarga masofadan turib video muloqot qilish imkoniyatini yaratib berish bilan birga mehnat bozorida dasturchi, tizim boshqaruvchisi kabi yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. 1970-yilda Britaniya hukumati xizmatlar sohasida mehnat unumdorligini oshirish maqsadida sohada faoliyat olib boruvchi subyektlar uchun maxsus soliqlarni joriy etdi.

Britaniyada xizmatlar sohasida yangi imkoniyatlarni o'rganish va kelajakda rivojlantirish strategiyalarini tuzish bilan shug'ullanuvchi maxsus Xalqaro savdo departamenti tashkil etilgan.

Xizmatlar sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish uchun Buyuk Britaniyada statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mexanizmi juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda mamlakat darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda intellektual texnologiyalar (neyral tarmoqlar va boshqa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari)dan foydalanish odatiy holga aylangan. Virtual xizmatlarning rivojlanishi, ayniqsa, moliya sohasida an'anaviy xizmatlarning rivojlanishiga katta xavf-xatar keltirib chiqaradi. Virtual xizmatlar mijoz bilan to'g'ridan to'g'ri, vositachilarsiz aloqaga kiradi va xizmat ko'rsatishda minimal xarajatni talab etadi. Shu sababli kelajakda virtual xizmatlar an'anaviy xizmatlarning o'rnini to'liq egallaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi iqtisodiyotning yetakchi sektori sifatida shakllangan bo'lib, yalpi ichki mahsulot va bandlik tarkibida yuqori ulushni egallaydi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya tizimlari hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribada xizmatlar sohasida axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, autsorsing mexanizmlaridan foydalanish, malakali kadrlar tayyorlash va mehnat bozorini moslashuvchan boshqarish samaradorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining turmush darajasi va iste'mol tuzilmasining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi daromadlari oshgani sari xizmatlarga bo'lgan talab ortib boradi, bu esa servis faoliyatining kengayishi va iqtisodiy resurslardan yanada oqilona foydalanishni talab etadi. Xizmatlar sohasida mehnat unumdorligi tarmoqlar kesimida turlicha bo'lsa-da, moliya, savdo, transport va telekommunikatsiya kabi sohalarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

- Xorijiy tajribalar va o'tkazilgan tahlillar asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:
- Xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va sun'iy intellekt elementlarini joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur.
- Mehnat unumdorligini oshirish maqsadida xizmatlar sohasida malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini doimiy rivojlantirib borish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.
- Xizmat ko'rsatish korxonalarida autsorsing va kooperatsiya mexanizmlarini keng joriy etish orqali yuqori xarajat talab qiluvchi va unumdorligi past xizmat turlarini optimallashtirish maqsadga muvofiq.
- Xizmatlar sohasida samaradorlikni baholash uchun xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar (mehnat unumdorligi, xizmatlar sifati, mijozlar qoniqish darajasi, xarajatlar samaradorligi)ni joriy etish va muntazam monitoring olib borish zarur.
- Davlat tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, jumladan, soliq imtiyozlari, investitsiya rag'batlari va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish lozim.
- Xizmat ko'rsatish sohasida yuqori texnologiyali, bilimga asoslangan va eksportga yo'naltirilgan xizmat turlarini rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarning xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini tizimli o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-8050769
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-169-sonli Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-6633676
4. Rahimova M. R., Ishmuxamedov A.E. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. T.: TDIU, 2010. 72-b.
5. D. Ruzieva, “Korxona iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma, “Innovatsion rivojlantirish nashriyotmatbaa uyi” nashriyoti, 2022-y. 166-bet
6. Arabov N.U., Zokirova N.Z. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari. Samarqand: SamDU nashriyoti. 2022 yil
7. Pardaev M.Q., Po‘latov M.E. Iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish. Toshkent: Iqtisod- Moliya. 2019 yil
8. Mirzaev Q.J., Tuxliev I.S. (2020). Xizmatlar sohasini boshqarishda strategik yondashuvlar. Iqtisodiy tahlil jurnali, №2(10), 28–35.
9. Xudoyberdiev Z.Ya. (2021). Xizmat ko‘rsatishda samaradorlikni baholash usullari. – Toshkent moliya instituti ilmiy ishlar to‘plami, №4, 63–68.
10. Safarov B.Sh. (2023). Raqobatbardosh xizmatlar yaratishda iqtisodiy resurslardan foydalanish mexanizmlari. Toshkent: «Fan va Taraqqiyot» nashriyoti.
11. Umurzakov B.X., G‘afurov U.V. (2022). Xizmat ko‘rsatish faoliyatida resurslardan foydalanishning ijtimoiy samaradorligi. Iqtisod va innovasiyalar jurnali, №1, 75–82.
12. Aslonova D.X. Servis sohasida raqamli transformasiyaning nazariy asoslari. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» jurnali, №2(34), 38–44. 2023 yil
13. Qosimova S. (2022). Service sector digitalization and economic resource management. Central Asian Economic Review, 4(2), 59–66.
14. Kuldoshev L.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlik salohiyatini baholashga ilmiy yondashuvlar. Servis ilmiy amaliy jurnali. 2024 yil 4/2-son

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/5**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz